

ERKIN A'ZAM SUHBATLARI**Ubaydullayeva Jamila Xurramovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Ko'charova Dildora Karim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijodkor Erkin A'zam publitsistikasining ajralmas bir qismi – suhbatlarga e'tibor qaratildi va suhbatlar mavzusi tahlil etildi. Suhbat janrining tarixiga nazar tashlandi. Suhbatning ahamiyatli va o'ziga xos jihatlari haqida fikrlar bildirildi. Suhbat janrining nazariy asoslari haqida so'z yuritildi. Suhbat janrining tahliliy publitsistikaning bir bo'lagi ekanligi izohlab berildi.

Kalit so'zlar: tahliliy publitsistika, suhbat, janr, suhbat shakllari, suhbat tarixi.

Publitsistika tur va xillarga bo'linishdan tashqari ichki-tarkibiy jihatdan turli janrlarga ham bo'linadi. Erkin A'zam publitsistikasi ham bundan mustasno emas. Ma'lumki, janr so'zi fransuzcha xil, tur ma'nosini bildiradi hamda adabiyot va san'at asarlarining ma'lum mazmuniy va shakliy turini bildiradi. Masalan, badiiy adabiyotning nasriy turidagi hikoya, qissa, roman, she'riy turidagi she'r, g'azal, ballada, doston, tasviriy san'atdagi natyurmort, portret, peyzaj va boshqalar bunga misol bo'la oladi. Inson ijodining bir turi bo'lgan publitsistika ham xuddi shu kabi o'z janrlariga ega bo'ladi va bu janrlar publitsistikaning vazifasi, izchil xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jumladan, axboriy publitsistika xabar (informatsiya), reportaj, intervyu, hisobot kabi janrlarga egadir. Bu janrlar hayotdagi fakt va hodisalarni, yangiliklarni tezkorlik bilan yoritishga xizmat qiladi. Mazkur janrlarning asosiy vazifasi o'quvchilarni jamiyatda yuz berayotgan voqea va hodisalardan xabardor qilish hisoblanadi.

“Tahliliy publitsistika ham o'ziga xos janrlarga egadir. Bular kengaytirilgan xabar (korrespondensiya), suhbat, maqola, taqriz, sharh kabilar bo'lib ularda hayot voqealaridan xabar berishdan tashqari ularni tahlil etish, ichki mohiyatini ochib berish asosiy o'rin tutadi. Tahliliy publitsistika janrlari hayotning ichki qatlamlariga kirib boradi, ularni tadqiq etadi va o'quvchi ongining ichki qatlamlariga ta'sir ko'rsatadi. Tahliliy publitsistika hayotning muhim, zarur masalalari va muammolarini ko'tarib chiqishda va ularga nisbatan jamoatchilik fikrini uyg'otishda keng miqyosda xizmat qiladi”[1].

Suhbat janrining nazariy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, quyidagicha fikrlarga duch kelamiz. “Suhbat ikki va undan ortiq shaxsning o'zaro muloqotidir. Muloqot turli xarakter va yo'nalishda bo'lishi mumkin. Adabiyot haqida, san'at haqida ikki kishi (olim va adib,

tanqidchi va shoir) aro kechuvchi suhbat tanqidchilikning go'zal va qiziqarli shakllaridan biridir. Suhbatda bir-birini tushunish yoxud prinsipial ravishda bir-biri bilan kelisha olmaslikdan qat'iy nazar, unda mavzuni chuqur idrok va his eta olguvchi mutaxassislar ishtirok etadi.

Yozuvchi bilan tanqidchi, munaqqid bilan shoir, dramaturg bilan olim o'rtasidagi suhbatda adabiyot, ijodning nozik muammolari, bahsli nuqtalari yoritiladi. Adabiy asar, adabiy jarayon, ijodiy laboratoriya haqida jamoatchilikka, mutaxassislarga yangi ma'lumotlar beriladi, u yoki bu masalaga mustaqil nuqtayi nazar ilgari suriladi. Suhbat adabiy tanqidning alohida bir janri sanalib, o'ziga xos tabiatga va xususiyatlarga ega. Unda ikki suhbatdosh-yozuvchi va tanqidchining yoxud yozuvchi – yozuvchi, munaqqid — tanqidchi qiyofasi, qalbi, fikrlash tarzi, ma'naviy dunyosi, didi yaqqol ko'rinib turadi. Muloqotda suhbatdoshlarning adabiyot haqidagi qarashlari, fikrlashlari, badiiy va ilmiy tafakkur tarzi, adabiy jarayonga, badiiy asarga adabiy muammolarga munosabati, estetik aqidalari yorqin namoyon bo'ladi. Suhbat jarayonida mujmal tushunmovchiliklarga o'rin qolmaydi, keskin munozaralar haqiqatning ko'zini ochishga yo'naltiriladi. Ba'zida suhbatdoshlarning qarashlari bir-biriga to'g'ri kelmasligi, ular bir birini rad etishi mumkin"[2].

Adabiy tanqidning qiziqarli sanaluvchi bu janri ko'p asrlik an'analarga ega. Tarixiy ildizlari Suqrot, Aflotun suhbatlari rivojlangan qadimgi yunon adabiyotiga borib taqaladi. Matbuot paydo bo'lgunicha, bizda bu janr og'zaki tarzda - bedilxonlik, navoiyxonlik, mashrabxonlik kabi og'zaki shakllarda hukm surib, turli mushoiralarda bo'y ko'rsatgan.

V. G. Belinskiy ham bu janrga tez-tez murojaat qilgani ma'lum. Uning ko'p maqolalari suhbat shaklida yozilgan. Masalan, «Rus adabiyoti 1814-yilda» yillik obzorini yozishda suhbatdan foydalangan. Tanqidchi va shoir Kolsov esa Belinskiyning suhbat shaklidan foydalanganiga qarshi chiqadi. «Tanqid to'g'ridan to'g'ri bir shaxs tomonidan aytilishi kerak va u buyruq kabi ta'sir qilishi lozim»[3], – deb hisoblaydi. Shuning ta'siridami, keyinchalik Belinskiy ijodida suhbatga e'tibor susaya borgan.

Erkin A'zam suhbatlari "Ertalabki xayollar" to'plamida alohida bob ko'rinishida berilgan. Bu suhbatlar turli mavzularda bo'lib, jamiyat hayoti, ma'naviyat, siyosat va adabiyot masalalarini yoritadi. Suhbatlarni mutolaa qilgan kishi yozuvchining fikri bilan tanishadi xuddi u bilan suhbatlashgandek bo'ladi. Shu jihati bilan bu janr yoqimli va o'qishlidir.

Erkin A'zamning ham suhbatlari ancha-munchani tashkil qiladi. Bu suhbatlar nafaqat adabiyotga qiziquvchilar, balki keng kitobxon, gazetxon-u jurnalxonlar orasida ham sevib o'qiladi. Buning sababi esa suhbatlar oddiy, samimiyligi, qolaversa, hamma uchun qiziq bo'lgan mavzularda ekanligidir.

Yozuvchining aksariyat suhbatlari tabiiyki, adabiyot mavzusida. Masalan, "Nosoz arava qachon yuradi" (suhbatdosh G. Sattorova), "Qalamdan boshqa qurolim yo'q" (suhbatdosh S. Quronov), "Asosiy mashg'ulotim – adabiyot, ammo omadim kinoda chopdi" (suhbatdosh M.

Qo'chqorova), "Yozuvchilik qismati, Nobel mukofoti, mo'jiza va boy berilgan fursat haqida" (suhbatdosh S. Kamol) kabi suhbatlari shular jumlasidandir.

S. Kamol bilan bo'lgan suhbatda yozuvchi mustaqillik yillari adabiyotida kimlar e'tirofga loyiq asarlar yaratgani haqida shunday fikrlarni bildirib o'tgan: "Oxirgi yigirma yilda Shukur Xolmirzayev, Xurshid Do'stmuhammad, Hamid Ismoil, Sharof Boshbekov, Abduqayum Yo'ldoshev, Shoyim Bo'tayev, Nabi Jaloliddin, Luqmon Bo'rixonning yaxshi asarlarini o'qidim...

Har bir yozuvchi kichik hikoya yozadimi, kattaroq qissa-romanmi albatta yangi gap aytishi kerak. Aslida, yozish – ko'ngil mayli. Yozuvchi shoirdan uni yoz, buni yoz deb talab qilish – ijod erkinligining muqaddas tamoyiliga zid. Ijod ahliga faqat bitta talab qo'yilishi mumkin: nimani yozsang yoz, ammo toza va halol yoz!"[4]

Bu kabi fikrlar adabiyotshunos olimlar, matbuotchilar, yozuvchilar, shu bilan birgalikda adabiyotga qiziquvchi har kim uchun qiziqarli bo'ladi, albatta. O'z davri adabiyoti haqidagi fikr har qanday zamon uchun ham dolzarb bo'lib qoladi. Xulosa qilib aytganda, suhbat janri publitsistikaning dastlabki shakllanish bosqichi bo'lgan va bugungi zamonaviy publitsistikani ham bu janrsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Eshbek T. "Badiiy publitsistik janrlar". Ma'ruzalar matni
2. Nazarov B. va b.O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. darslik Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi —T.: 2012. 422-bet.
3. Егоров Б. О мастерство литературной критики. - Л. 1980. - С. 176
4. Yozuvchilik qismati, Nobel mukofoti, mo'jiza va boy berilgan fursat haqida. Erkin A'zam badiiy olami. 260-bet.
5. A'zam E. Ertalabki xayollar. "O'zbekiston" NMIU, -T.: 2015.